

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA ATROF-MUHITNI
O'RGATISH ORQALI NUTQNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI VA
BOLALARNI TO'G'RI TALAFFUZGA O'RGATISH METODLARI**

Surayyo Arziqulova Fayzullayevna

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti tadqiqotchisi

Boltayeva Manzura Boyturayevna

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annontatsiya : Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni atrof muhitni bilishda nutqni rivojlantirish texnologiyalari va bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishning shart-sharoitlari hamda bu vaziyatlarda yuzaga keladigan kamchiliklarni bartaraf etish , bolalarga teng imkoniyatlarni yaratish, mashg'ulotlar jarayonida tarbiyachining mahoratini va diqqatini oshirish, nutqiy kamchiliklari bo'lgan bolalar bilan individual ishlash sharoitlarini yaratish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, maktabgacha ta'lim, talaffuz, sharoitlar tengligi, diqqat, vaziyat, guruhlar, vosita, metod, vazifa , hamkorlik faoliyati , takomillashuv, samarali ta'lim, natija, atrof-mihit, hamkorlik masalalari artikulyatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются технологии развития речи у детей, воспитывающихся в дошкольных образовательных организациях, в понимании окружающей среды и условий обучения детей правильному произношению, а также устранение недостатков, возникающих в этих ситуациях, создание равных возможностей для детей, совершенствование навыков и внимания воспитателя в процессе обучения, создание условий для индивидуальной работы с детьми с нарушениями речи.

Ключевые слова: Образование, воспитание, дошкольное образование, произношение, равенство условий, внимание, ситуации, группы, инструменты, методы, задания, совместная деятельность, совершенствование, эффективное образование, результаты, среда, совместные вопросы, артикуляция.

Annotation : This article discusses the technologies for developing speech in children educated in preschool educational organizations in the knowledge of the environment and the conditions for teaching children to pronounce correctly, as well as the elimination of shortcomings that arise in these situations, creating equal opportunities for

children, increasing the skills and attention of the educator during the training process, and creating conditions for individual work with children with speech disabilities.

Keywords: *Education, upbringing, preschool education, pronunciation, equality of conditions, attention, situations, groups, tools, methods, tasks, cooperative activities, improvement, effective education, results, environment, cooperation issues, articulation.*

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tevarak-atrof haqidagi bilimlarni shakllantirish va shu orqali ularning nutqini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb muammolardan biridir. Nutq – bolaning tafakkuri, kuzatuvchanligi va dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Yangi pedagogik texnologiyalar bolalarning tevarak-atrofga oid bilimlarini chuqurlashtirishda hamda ularning og‘zaki nutqini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tevarak-atrof haqidagi bilimlar bolalar nutqining rivojlanishiga o‘zaro bog‘liqdir. Bola tevarak-atrofni idrok qilish orqali so‘z boyligini oshiradi. Har bir yangi tushuncha va hodisa haqida to‘g‘ri va aniq ifodalash uchun nutqiy faoliyat zarur. Nutqni rivojlantirishda foydalaniladigan texnologiyalar ayniqsa hozirgi rivojlanayotgan zamonamizda zamonaviy pedagogik texnologiyalar ayni maqsadga erishishda keng qo‘llaniladi.

Bola bilan birgalikda ob-havo, fasllar, hayvonlar yoki o‘simliklar hayotiga oid kuzatishlar olib borish va ularni so‘z bilan ifodalash orqali kuzatish texnologiyalaridan foydalaniladi. Bu jarayonlarda dialogik nutq ko‘nikmalaridan foydalanib savol-javob, rolli o‘yinlar orqali muloqotni shakllantirish ta‘lim-tarbiya jarayonlarini yanada sayqallaydi. “Bola nutqi uning dunyoqarashi, fikrlash qobiliyati va atrofdagi voqelikni idrok etish darajasi bilan chambarchas bog‘liq”[1] Maktabgacha ta‘lim yoshidagi barcha guruh bolalariga ta‘lim-tarbiya jarayonlarida nutq bilan bog‘liq faoliyatlarni tashkil etish bu albatta bolalarda aqliy fikrlash qobiliyatini yanada oshirishga imkon yaratadi. Tasviriy san‘at bilan integratsiya qilish orqali esa bolalar ongida dunyoqarashning kengayishi, yaxshi fikrlash qobiliyatlari shakllanib boradi. Rasmlar asosida hikoya tuzish, predmetlarni ta‘riflash bolalarning mashg‘ulot jarayonlarini yanada boyitib qiziqarli bo‘lishiga hamda bevosita faoliyatlarda bolalarning o‘zlari aktiv ishtirok etishlari ta‘lim jarayonlariga mazmun bag‘ishlaydi.

Bolalarning bilimlarini tartibga solish va nutqiy bog‘liqlikni rivojlantirish uchun samarali usullardan yana biri bi STEAM yondashuvidir. Bunda Fan, texnologiya, muhandislik, san‘at va matematika elementlarini nutqiy faoliyat bilan bog‘lash orqali mashg‘ulot shakllari aynan markazlarga to‘liq bog‘lanib bolalarda katta qiziqish bilan yondoshiladi. Ayniqsa tabiiy jarayonlar, tajriba usullaridan foydalanish hech bir bolani befarq qarab turishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bunda hamjihatlikda ishlash, jamoaviy bir-biriga

ko'maklashish va guruhli suhbatlar bolalar nutqining yanada yaxshiroq rivojlanishiga yordam beradi.. "Faol nutqiy faoliyatni tashkil etishda muloqotli o'yinlar va erkin ijodiy mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi"[2] Bolalar nutqini rivojlantirish bu bevosita ta'lim – tarbiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Nutqning yaxshi rivoji unda olib boriladigan mashg'ulotlarning sifati va imkoniyatlari bilan belgilanadi. Topishmoq va maqollar orqali muloqotni jonlantirish bu bolalarda qizishni yana bir karra oshiradi. Kim o'zarga tashkil etiladigan topishmoq topish shartlari orqali bola yanada tezroq fikrlaydi va nutqida fikrini namoyon qilish imkoniyatlarini shakllantira boshlaydi. Tarbiyachi bolaning so'zlashuv faoliyatini faollashtiruvchi, uni savollarga jalb qiluvchi, to'g'ri gap qurilishini o'rgatuvchi bo'lishi kerak. Shuningdek, har bir mashg'ulotda bolaning nutqiy faolligini nazorat qilish va rivojlantirib borish zarur. Maqollar orqali esa ham tarbiyaviy jihatdan bola yuksalib borsa ham ta'limiy rivojlanishda ildamlikni qo'lga kiritadi. Shuning uchun tarbiyachi har sohada kreativ bo'lishi, bolalar bilan ishlash jarayonlarida bolalar nutqining rivojlanishiga aktiv ta'sir etuvchi usul va metodlardan samarali foydalanishi talab etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tevarak-atrofga oid bilimlarni kengaytirish, ularning og'zaki nutqini boyitadi. Yangi pedagogik texnologiyalar esa bu jarayonni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Tevarak-atrofnı o'rganish orqali bolalar atrofdagi hodisalar haqida fikr yuritishga, o'z fikrini ifodalashga va tinglovchini tushunishga o'rganadilar.

Bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishning shart-sharoitlar haqida so'z borganda nutqiy rivojlanish muhitining mavjudligi eng katta omil hisoblanadi. Bolalar talaffuzni o'rganishda avvalo o'z atroflaridagi nutqiy muhitdan ta'sirlanadilar. Shuning uchun ham tarbiyachilar va ota-onalar toza, aniq, grammatik jihatdan to'g'ri gapirishlari lozim. Bolalar bilan ko'p suhbat qurish, savol-javoblar tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarga ilk yosh davrlaridan boshlab nutqni ifoda eta boshlaganlaridan ularda to'g'ri nutqni shakllanishiga nihoyatda e'tiborni qaratish zarur. Tovushlarni to'g'ri chiqarishni o'rgatuvchi mashqlar orqali ilk davrlardan boshlab foydalanish juda ko'p nutqiy kamchiliklarni oldini olishga va bartaraf etishga yordam beradi. Artikulyatsion mashqlar (til, lab, jag' harakatlari) orqali talaffuz kamchiliklari o'z vaqtida bartaraf etilishi bola kelajagi uchun muhim hisoblanadi. Nafasni boshqarish mashqlari (masalan, shamni puflash, cho'g'ni yondirmasdan ushlab turish) hamda o'yinlar orqali tovushlar takrorlanadigan mashg'ulotlarga bolalarni jalb qilish zarur, chunki doimiy nutqni rivojlantirib borish va talab darajasidagi mashg'ulotlarni tashkil etish ta'limda muhim qadam hisoblanadi. "Pedagogik texnologiya bolalarning mustaqil izlanishini qo'llab –quvvatlash va nutqiy faolligini yuksaltirish imkonini beradi" [3] Agar bolada talaffuz buzilishi mavjud bo'lsa, logoped mutaxassisning yordami zarur bo'ladi bunda dastlabki og'zaki baholash va

individual mashg‘ulotlar kerak. Ko‘rgazmali va audiovizual vositalardan foydalanish orqali bolalarda aniqlangan kamchiliklar ustida logoped bilan maslahatlashgan holda ota-ona va tarbiyachi hamkorlikda ishlashi zarur. Har bir tovushga mos rasmlar, predmetlar, videolar yordamida mashg‘ulotlar olib borish kundalik hayotda ham talaffuzlarni to‘g‘ri tashkillashtirish, o‘zaro munosabatlarda ya‘ni nutq bilan bog‘liq jarayonlarda bolalarda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan chora –tadbirlarni qo‘g‘ri qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yinchoqlar, yirik harflar, interaktiv doskalar bu jarayonda samarali vosita bo‘la oladi. Tizimli yondashuv va motivatsiya mashg‘ulotlar bosqichma-bosqich tashkil etilishi lozim.

Avval oddiy so‘zlar, keyin murakkab so‘z birikmalari, har bir to‘g‘ri aytilgan so‘z uchun rag‘batlantirish (maqtab, quvnoq ovozlari, kichik sovg‘a) bola nutqidan uyalmaslik, erkin ifoda etish hissining shakllanib borishi, to‘g‘ri talaffuz qoidalarini yaxshi o‘zlashtirishiga sabab bo‘ladi. Tinglab tushunish va taqlid qilish ko‘nikmasini rivojlantirish bolalar talaffuzni ko‘pincha taqlid orqali o‘zlashtiradi. “Bolalarning tevarak-atrofga oid bilimlarini shakllantirish orqali ularning fikrlash, nutq va tafakkur ko‘nikmalari rivojlanadi”[4] Bundan ko‘rinib turibdiki, bolalarning doimiy tabiat, atrof-mihit, odamlar bilan o‘zaro aloqasi nutqiy rivojlanishda muhim ahamiyatli ekan. Shuning uchun bolalar bilan tabiiy qo‘yniga ko‘proq sayr uyushtirish, mashg‘ulotlarni ochiq havoda tashkil qilish hamda shu mavzuda ko‘proq sifatli she‘rlar, ertaklar, hikoyalarni eshittirish foydalidir. Uyda va bog‘chada uzviylikni ta‘minlash ya‘ni o‘rgatilgan talaffuz mashqlari faqat maktabgacha ta‘lim muassasasidagina emas, balki uyda ham davom ettirilishi lozim.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridan boshlab bolalarda fonematik eshituvni rivojlantirish bolalar so‘zlardagi tovush farqlarini eshitib ajratishni o‘rganmaguncha to‘g‘ri talaffuz qilishda qiynaladilar. Shu bois fonematik eshituv rivojlantirish orqali o‘xshash, ammo tovush jihatdan farqli so‘z juftliklarini taqqoslash: "top – dop", "bor – zor" kabi so‘zlarni o‘yinlar orqali noto‘g‘ri talaffuz qilingan so‘zni toppish hamda multimodal yondashuvlar asosida so‘zlarni talaffuz qilishda faqat eshitish emas, ko‘rish, harakatlanish, taqlid qilish orqali ham o‘rganish samarali hisoblanadi. Har bir tovushga mos rasm, imo-ishora (masalan, “s” tovushida ilon harakati) o‘yinli faoliyatga asoslangan darslar (masalan, “tovushni top”, “so‘z qur”) va individual yondashuvlar har bir bola o‘ziga xos rivojlanish sur‘atiga ega va bu albatta o‘z natijasini ko‘rsatadi.

Ba‘zi bolalar "S", "L", "Sh", "Ch" kabi tovushlarni sekinroq o‘zlashtiradi hamda tashxis asosida mos mashqlar va yondashuvlar tanlanadi. O‘yin va dramatizatsiya vositasida mashg‘ulotlar va rolga kirishish (masalan, hayvoncha ovozini chiqarish) orqali bola o‘zini erkin his qiladi hamda murakkab tovushlarni kuchli hissiy kayfiyatda o‘zlashtiradi.

Shuning uchun ham uy sharoitida talaffuzni mustahkamlash ya'ni ota-onalar bilan birga she'r yodlash, hikoya o'qish juda samarali hisoblanib ,har kuni 10-15 daqiqalik talaffuz mashqlari va uyda gaplashayotganda bolaning noto'g'ri talaffuzini to'g'rilash, lekin tanqid emas, model ko'rsatish yo'li bilan amalga oshirilgan jarayonlar samarali bo'ladi.

Bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish — ularning nutqiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan jarayon bo'lib, bu nafaqat eshitish, balki ko'rish, motorika va emotsional ong bilan chambarchas bog'liq. To'g'ri talaffuz bolaga atrofdagi bilan muloqotga kirishish, o'z fikrini aniq ifoda etish va ijtimoiy muhitga moslashishda yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda nutqiy muhitning sifati, ya'ni kattalarning toza, aniq va to'g'ri talaffuzi ,fonematik eshituvni rivojlantirish va artikulyatsion mashqlar orqali talaffuz organlarini mustahkamlashorqali bolada nutqiy faoliyat to'g'ri shakllanadi. Individual yondashuv, ya'ni har bir bolaning yoshiga, imkoniyatlariga mos metodlar tanlash esa didaktik o'yinlar, dramatizatsiya, vizual materiallar kabi zamonaviy vositalardan foydalanish hamda ota-onalar bilan hamkorlik, uy sharoitida mustahkamlovchi faoliyatni tashkil qilish ta'lim – tarbiya jarayonlarida yanada muhim hisoblanadi. Pedagoglar va ota-onalar birgalikda ishlagan taqdirdagina bolalarda to'g'ri va ravon talaffuz shakllanishi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Z. "Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini rivojlantirish." Toshkent: "O'qituvchi", 2020. 15-bet.[1]
2. Turayeva G. "Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash metodikasi." Toshkent , 2019. 28-bet.[2]
3. Bobojonova M . "Pedagogik texnologiyalar :nazariya va amaliyot." Toshkent : "Iqbol", 2021 42-bet [3]
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari "Ilk qadam" Davlat dasturi, 2022y 36-bet[4]
5. Shirinova, D. (2023). Maktabgacha ta'limda nutqiy rivojlanishning innovatsion usullari. Toshkent: Fan.